



YURTIMIZDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYAVIY SUDNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Temirov Rustamjon Usmonaliyevich

Jamoat xavfsizligi universiteti harbiy xizmatchisi mayor

<https://www.doi.org/10.37547/ejlfas-v03-i02-p1-38>

ARTICLE INFO

Received: 17th February 2023

Accepted: 27th February 2023

Online: 28th February 2023

KEY WORDS

Konstitutsiya, konstitutsiyaviy sud, huquq, erkinlik, demokratik davlat, qonun.

ABSTRACT

Ushbu maqolada inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda konstitutsiyaviy sudning ahamiyatli jihatlarini; insoniyat tarixida konstitutsiyaviy sudning egallagan o'rni hamda Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash borasidagi mavqei haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Insoniyatning ijtimoiy va huquqiy jihatdan rivojlanish tarixiga solinsa, unda Konstitutsiyaviy sud insoniyat tarixida insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'zaro chegarada turish va manfaatlar muvozanatini tartibga solgan holda, barpo etish, eng muhimi, Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash va albatta, uni maxsus muhofaza etish maqsadida tashkil etilganiga guvoh bo'lish mumkin.

Jahon va mintaqa soha ekspertlarining ta'kidlashlaricha, konstitutsiyaviy odil sudlov - demokratik davlatchilikning eng ko'zga tashlangan belgisi sanaladi. Konstitutsiyaviy sud nafaqat demokratik davlatchilikning yuqori darajadagi belgisi, balki konstitutsiyaviy nazoratning oliy shakli, zamonaviy va demokratik davlatga xos bo'lgan alohida talab, zaruriy institut hamdir. Jumladan, mamlakatga tegishli bo'lgan Konstitutsiyaning ustun jihatlarini ta'minlash va shu navbatda, qonuniylik muhitini, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini bunyod etishning ishonchli garovi ham hisoblanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.

Shundan kelib chiqib, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus organ - qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlarini Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'radigan Konstitutsiyaviy sudni tashkil etish va faoliyat yuritishi nazarda tutildi.

O'tgan yillar mobaynida amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi hujjatlar yangilandi. Xususan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 13-yanvarda qabul qilingan va Senat tomonidan 2021-yil 12-martda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Sudi To'g'risida gi qonunni alohida e'tirof etish lozim. Chunki bu qonun kuchga kirgunga qadar amalda bo'lgan avvalgi Konstitutsiyaviy sud qonunidan anchayin farqlidir.



Mazkur qonunning mazmun-mohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadagi, u avvalgi normalardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: eng avvalo, oldingi qonun majoziy qilib aytganda oddiy qonun bo'lgan bo'lsa, yangi qonun "Konstitutsiyaviy qonun" maqomiga ega bo'ldi. Albatta, Konstitutsiyani maxsus muhofaza qiluvchi organ faoliyatini tartibga soladigan qonun konstitutsiyaviy bo'lishi har tomonlama oqilona qarordir. Bu uning faoliyatini turli ehtimoliy ta'sirlardan muhofaza qilishga kafolat bo'lib xizmat qiladi. Yuridik adabiyotlarda konstitutsiyaviy qonun oddiy qonundan ustun turishi, Asosiy qonunga yaqinligi va unda qabul qilinishi alohida belgilanganligi, ba'zi davlatlarda bunday qonun konstitutsiyaning tarkibiy qismi maqomiga egaligi, qabul qilinish tartib- taomillari konstitutsiyaga tuzatish kiritish tartibi bilan o'xshashligi, qabul qilinish jarayoni murakkabligi, ya'ni oddiy qonunlarga ko'pchilik ovoz talab qilinsa, konstitutsiyaviy qonunga uchdan ikki qism ovoz talab qilinishi bilan farqlanadi. Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, bu qonun qabul qilingunga qadar davlat hokimiyati organlaridan faqatgina Oliy Majlis palatalari to'g'risidagi qonunlar konstitutsiyaviy maqomga ega edi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA. Yana bir muhim jihati esa, bu Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplarida mujassam bo'lib, unda Konstitutsiyaning ustunligi, mustaqillik, kollegiallik, oshkoralik, taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi kabi yangi prinsiplar o'z ifodasini topdi hamda har bir prinsipning mazmun-mohiyati alohida moddalarda ochib berildi.

Konstitutsiyaviy sud o'z faoliyati davomida Konstitutsiya ustunligini ta'minlash maqsadida ta'bir joiz bo'lsa, «normativ-huquqiy hujjatlarni sud qiladigan» mustaqil sud hokimiyati organi hisoblanadi.

Shu bilan birga, o'z faoliyatining asosiy maqsadi konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, inson va fuqaroning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining butun mamlakat bo'ylab ustunligi va bevosita ta'sirini ta'minlash ekanligini hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi mamlakatda konstitutsiyaviy nazorat sohasida etakchi o'rinni egallaydi.

Konstitutsiyaviy sud o'z nomi bilan Asosiy qonun bilan hamnafasdir. Asosiy qonun ham davlat va fuqarolar farovonligini hamda yana ko'plab ijtimoiy holatlarda yuksaklikni qadrlaydi. Shu sababli Konstitutsiyaviy sudga kelib tushgan murojaatlar murojaatlar ro'yxatdan o'tkaziladi. Bu haqida qonunning 31-moddasi aynan shu masalaga e'tibor qaratadi, ya'ni: Murojaatlarni ro'yxatga olish. Ayrim murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi deb ta'riflanadi va ushbu moddada sudga kelib tushadigan murojaatlarga nisbatan shunday deyiladi:

Hal etilishi Konstitutsiyaviy sud vakolatlariga kirmaydigan masalalar bo'yicha murojaatlar Konstitutsiyaviy sud tomonidan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda, qo'yilgan masalalarni hal etish o'z vakolatiga kiritilgan tegishli davlat organlariga, tashkilotlarga va mansabdor shaxslarga besh kunlik muddatdan kechiktirmay yuboriladi.

Mazkur qonun moddalarida fuqarolar tomonidan yo'llangan murojaatlar doimiy ravishda diqqat markazda bo'lishini Qonunning 32-35-moddalarida ham aniqroq ko'rish mumkin.

XULOSA. Konstitutsiyaviy sud faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kengaytirishga qaratilgan. Mazkur sudning konstitutsiyaviy tuzum



asoslarini, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, konstitutsiyaning ustunligini ta'minlashga oid faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish davlat uchun ham fuqarolar uchun ham faqat va faqat ijobiy manfaatni belgilaydi.

Muxtasar aytganda, «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi Prezident ta'kidlaganlaridek, mamlakatda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun hayotning barcha jabhalarida konstitutsiyaviy nazoratni kuchayishiga, bu esa pirovard natijada inson huquq va erkinliklarini, uning sha'ni, qadr-qimmati, mol-mulkining daxlsizligini saqlash, fuqarolarning mehnat qilish, ta'lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish kabi eng asosiy huquqlarini to'la ta'minlash imkonini beradi.

References:

1. <https://lex.uz/acts/-3221763>
2. <https://constitution.uz>
3. <https://uz.wikipedia.org>